

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba.....	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



XUFIYONA IQTISODIYOT ULUSHINING OSHISHI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA BEVOSITA TAHDID SIFATIDA

Nabiyev Feruz Nurmurodovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Soliq qo'mitasi Strategik rejalashtirish departamenti
Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash hamda iqtisodiy
integratsiya bo'limi boshlig'i, mustaqil tadqiqotchi



Annotatsiya: mazkur maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning mavzuga oid ilmiy qarashlari, xalqaro moliyaviy institutlarning tadqiqotlari hamda xufiyona iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotga ta'sirlari tahlil qilingan. Shuningdek, xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda bu orqali mamlakat iqtisodiy xavfsizligining ta'minlanishi bo'yicha ilmiy xulosalar va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: xufiyona iqtisodiyot, iqtisodiy xavfsizlik, indikator, soliq yuki, korrupsiya, byurokratik to'siqlar, davlat (nodavlat) tashkilotlari integratsiyasi, raqamlashtirish, xavf, tahdid, yalpi ichki mahsulot, Xalqaro valyuta jamg'armasi.

Аннотация: В данной статье анализируются научные взгляды отечественных и зарубежных учёных, исследования, проводимые международными финансовыми институтами, а также влияние теневой экономики на национальную экономику. Также, разработаны предложения по снижению доли теневой экономики за счет поэтапного внедрения данных направлений.

Ключевые слова: теневая экономика, экономическая безопасность, индикатор, налоговое бремя, коррупция, бюрократические барьеры, интеграция государственных (негосударственных) организаций, сифровизация, риск, угроза, валовой внутренний продукт, Международный валютный фонд.

Abstract: This article analyzes the scientific views of domestic and foreign scientists, research conducted by international financial institutions, as well as the influence of the shadow economy on the national economy. Proposals have also been developed to reduce the share of the shadow economy through the phased implementation of these areas.

Key words: shadow economy, economic security, indicator, tax burden, corruption, bureaucratic barriers, integration of state (non-state) organizations, digitalization, risk, threat, gross domestic product, International Monetary Fund.

KIRISH

Bugungi kunda xufiyona iqtisodiyot jahon hamjamiyati oldidagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti bayonotiga ko'ra, xufiyona iqtisodiyot ulushining tartibsiz ravishda oshib borishi, dunyo mamlakatlari iqtisodiy xavfsizligiga tahdid solishi bilan cheklanib qolmasdan, balki xalqaro terrorizm, odam savdosi, narko-biznes hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni o'z ichida qamrab olgan transmilliy uyushgan jinoyatchilikka transformatsiyalanishi orqali butun insoniyat uchun xavf tug'dirishi mumkinligi ta'kidlangan.¹

Bundan tashqari, Xalqaro valyuta jamg'armasining 2020-yilgi hisobotida, jahon iqtisodiyotining uchdan bir qismi (yoki 28,4 trln.AQSh dollari) xufiyonaligicha saqlanib qolayotganligi, ushbu mamlakatlarning mavjudligiga bevosita tahdid sifatida baholangan.²

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 18-avgustda kuni tadbirkorlar bilan o'tkazilgan ochiq mulokotda mamlakatda xufiyona iqtisodiyot ulushining yuqori ekanligi, kelgusida uning ulushini qisqartirish bo'yicha tizimli choralar ko'rinishi kerakligi ta'kidlangan. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmonining 56-bandida "Yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan.

1 БМТ Бош Ассамблеясининг 2000-йил 15-ноябрдаги 55/25-сонли резолюциясига асосан қабул қилинган "Трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши курашиш" Конвенцияси.

2 Международный валютный фонд «Скрываясь в тени, рост подпольной экономики» Вашингтон, Округ Колумбия – 2018.



Ta'kidlash joizki, bugungi kunda hukumat tomonidan bir qator islohotlarning olib borilishiga qaramasdan, mamlakatimizda xufiyona iqtisodiyot ulushi yuqoriligicha saqlanib qolmoqda.

Ma'lumot o'rnida: Xalqaro valyuta jamg'armasining hisobotida rivojlanayotgan mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyot ulushi o'rtaacha 30–39 foiz bo'lishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda xufiyona iqtisodiyot ulushi (yalpi ichki mahsulotga nisbatan) 58,5 foizni³, 2022-yilda esa 62 foiz⁴ (yoki belgilangan me'yordan 23 foizga ko'p)ni tashkil etgan.

Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatimizda xufiyona iqtisodiyotga qarshi yetarlicha choralar ko'rilmayotganligini shuningdek, davlat boshqaruvi organlari tomonidan operativ ravishda ta'sirchan mexanizmlarni o'z ichiga olgan kompleks islohotlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatmoqda.


Buning uchun, xufiyona iqtisodiyotga sabab bo'luvchi omillarni aniqlash, unga qarshi olib borilgan islohotlarni tahlil qilish hamda ilg'or xorijiy tajriba va moliyaviy institutlar tavsiyalaridan foydalangan holda samarali mexanizmni ishlab chiqish oldimizdagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xufiyona iqtisodiyot va uni keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida bir qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiqot olib borishgan. Xususan, G'arb olimlari Fridrix Shnayder va Dominik Enstelar xufiyona iqtisodiyotni norasmiy yoki parallel iqtisodiyot deb atab, uni keltirib chiqaruvchi asosiy omillari sifatida soliq yukining og'irligi, davlat boshqaruvi organlaridagi korrupsiya hamda tadbirkorlik sohasidagi byurokraziyani qayd etishgan.⁵

Bundan tashqari, rus iqtisodchi olimlari O.Stepicheva va Yu.Gudiylar xufiyona iqtisodiyotni – muayyan sharoitlarda, o'z iqtisodiy faoliyatini yashirish qulay bo'lgan vaziyat sifatida ta'riflab, uni keltirib chiqaruvchi 5 ta omillarni sanab o'tishgan. Xususan, tabiiy (insonlar har doim minimal harakat qilib, maksimal foyda olishga harakat qiladi), iqtisodiy (insonlar o'z mablag'larini tejash orqali, o'z maqsadlariga erishmoqchi bo'ladi), siyosiy (insonlar davlat siyosatidan norozi bo'lib, siyosatni ularning hayotiga ta'sir qilishidan norozi), huquqiy (insonlar har qanday holatda javobgarlikdan ozod bo'lishga ishonishadi) hamda ijtimoiy (insonlar o'zlarining ijtimoiy holatlaridan norozi bo'lib, ushbu holatni yaxshilashga harakat qiladilar).⁶

Shuningdek, MDH davlatlari tadqiqotchilari G.Agarkov va N.Dergachevlar xufiyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi omillarini shartli ravishda to'rt guruhga ajratib, quyidagicha izoh keltiradilar (1.1-chizma).⁷



1.1-chizma: Xufiyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi omillar

- 3 Жаҳон банкининг 2023 йил 7 августдаги “Ўзбекистон Республикасининг хуфийона иқтисодиёти улушини баҳолаш” бўйича ҳисоботи.
- 4 Стратегик ислохотлар агентлиги директори Матбуот-котиби М.Хасанованинг АОКАда 2023 йил 1 февралдаги ҳисоботи расмий баёноти маълумотлари.
- 5 Friedrich Schneider and Dominik H. Enste “Shadow Economies: Size, Causes, and Consequences”. Journal of Economic Literature Vol. 38, No. 1 (Mar., 2000), pp. 77-114 (38 pages)
- 6 О.Степичева “О сущности и содержании категории «теневая» экономика» «Гуманитарные науки». 2007. № 8. С. 58–65., Гудий Ю.С. “Понятие, виды и влияние теневой экономики” экономический интернет-журнал.
- 7 Г.Агарков “Минимизация негативного воздействия теневой экономики на социально-экономическое развитие региона”. Екатеринбург, 2008. Н.Дергачев “Administrative Consulting. Volume 4. Issue 2(8)” “Основные причины возникновения теневой экономики в России” РАНХиГС. Москва, 2019.



Shu bilan birgalikda, Iqtisodiy fanlar professori P.Yunusova xufiyona iqtisodiyotni, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida baholab, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining butun tizimini qamrab olishini ta'kidlagan hamda uni mavjudligining to'rtta asosiy sabablarini sanab o'tgan:

- soliq yukining yuqoriligi hamda biznes yuritishdagi qiyinchiliklar;
- tartibga soluvchi huquqiy tizimning nomukammalligi;
- jamiyatning daromadlar bo'yicha yuqori darajadagi tabaqalanishi;
- qonun bilan alohida bir guruh mehnatidagi cheklovlar.⁸

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xufiyona iqtisodiyot tushunchasiga qisqacha qilib – jamiyat va davlatdan yashirin holda yuritiladigan, hukumat tashkilotlari tomonidan nazorat qilinmaydigan hamda soliq va buxgalteriya hisobidan tashqarida bo'lgan iqtisodiy faoliyat deb tarflash mumkin. Mazkur iqtisodiy faoliyatdan olingan daromadlar yashirin holatda bo'lganligi sababli, soliqqa tortilmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida "O'zbekiston Respublikasining xufiyona iqtisodiyot ulushi, uni keltirib chiqaruvchi omillar hamda milliy iqtisodiyotga ta'sirini qisqartirish" mavzusiga doir empirik ma'lumotlar tahlili o'tkazildi. Shu bilan birgalikda kontent-tahlil, "SWOT" tahlil, "Pattern" metodi, ekspert so'rovi hamda dala so'rovlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qayd etilganlarni inobatga olib, xufiyona iqtisodiyotning yuzaga kelish sabablarini quyidagi uchta guruhga ajratamiz:

- **Iqtisodiy omillar.** Soliq yukining yuqoriligi, biznes sohalarini qayta-qayta qurish, moliyaviy tizimning inqirozi, davlat mulkini xususiyashtirish jarayonining nomukammalligi, ro'yxatga olinmagan iqtisodiy tuzilmalarning faoliyati hamda boshqalar;
- **Ijtimoiy omillar.** Aholi daromadining pastligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi, yalpi ichki mahsulotning notekis taqsimlanishi;
- **Huquqiy omillar.** Soliq qonunchiligining nomukammalligi, davlat fuqarolik xizmati hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi korrupsiya, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha mexanizmning nomukammalligi va boshqa bir qator omillar.

Mazkur omillarni bartaraf etish yuzasidan, hukumat tomonidan so'nggi 14-yil ichida bir qator islohotlar olib borilgan. Xususan, soliqlar soni 19 tadan 9 taga tushirilgan, soliq stavkalari: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i - 22 foizdan 12 foizga, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i 35 foizdan – 15 foizga, qo'shilgan qiymat solig'i – 24 foizdan – 12 foizga pasaytirilgan.

Bundan tashqari, biznesni raqamlashtirish indeksi bo'yicha 190 davlat ichida 112-o'rindan – 43-o'ringa, Xalqaro korrupsiya indeksiga ko'ra, 180 ta davlat ichida 172-o'rindan – 126-o'ringa, biznesni yuritish indeksi bo'yicha 190 ta davlat ichida 147-o'rindan – 69-o'ringa ko'tarilgan. Biroq, mazkur ko'rsatkichlarga qaramasdan xufiyona iqtisodiyot ulushi tartibsiz ravishda 38 foizdan 62 foizga o'sgan.(1-jadval)

1-jadval: Xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarning tahlili

№	Islohot qilingan sohalar	2009	2012	2017	2022
1	Soliqlar soni ¹	19	15	13	9
2	Soliq stavkalari:				
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	22%	22%	21%	12%
4	Foyda solig'i	35%	30%	20%	15%
5	QQS	24%	20%	20%	12%
6	Biznesni raqamlashtirish Jahon bankining "GovTech Maturity Index" ² (190ta davlat ichida - o'rin)	112	-	80	43
7	Korrupsiya darajasi "Transparency International" (180ta davlat ichida - o'rin) ³	172	170	157	126
8	Biznesni yuritishdagi byurokratik to'siqlar "Doing business" ⁴ (190ta davlat ichida - o'rin)	-	147	76	69 (2021)
9	YalMga nisbatan xufiyona iqtisodiyot ulushi	-	38% ⁵	50% ⁶	62% ⁷

8 П.Юнусова "Сущность теневой экономики в современных условиях" Институт социально-экономических исследований. Россия – 2016.



Ta'kidlash joizki, Xalqaro valyuta jamg'armasining 2021-yilgi hisobotida, rivojlanayotgan mamlakatlarda YalMga nisbatan xufiyona iqtisodiyot ulushi 30-39 foizni tashkil etishi belgilangan. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda xufiyona iqtisodiyot ulushi 58,5 foizni tashkil etgan.⁹ Shuningdek, Strategik islohotlar agentligi matbuot-kotibi M.Xasanovning Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligidagi rasmiy bayonotida O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda xufiyona iqtisodiyot ulushi 48-62 foizni tashkil qilganligi ta'kidlangan. Mazkur ko'rsatkichlar xufiyona iqtisodiyot bo'yicha inqiroz holati indikatorlarida inqiroz holatining 3 darajasi (inqiroz)dan oshganligi (2-jadval), O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida baholanmoqda.

2-jadval: O'zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyot ko'rsatkichlarining indikatorlari

№	Indikator nomi	Me'yor	IO 1	IO 2	IO 3	I 1	I 2	I 3	Amalda
1	YalMga nisbatan xufiyona iqtisodiyot ulushi (%)	15	20	25	30	40	45	50	62
2	Davlat (nodavlat) tashkilotlari o'rtasidagi integratsiya ko'rsatkichi (%)	60	55	50	45	40	35	30	30

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hukumat tomonidan xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha keng islohotlar olib borilganligiga qaramasdan, uning ulushi yildan-yilga tartibsiz ravishda o'sib borgan. Mazkur muammoni keltirib chiqaruvchi bir qator omillar mavjud.

Xususan, mamlakatimizda xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha yagona normativ-huquqiy hujjat (Strategiya) mavjud emas hamda xufiyona iqtisodiyot uchun mas'ul tashkilot aniq belgilanmagan.

Bundan tashqari, yalpi ichki mahsulot hajmidagi xufiyona iqtisodiyotni hisoblash metodikasi hamda YalM tarmoqlari kesimidagi aniq hisob-kitoblar mavjud emas. Shu bilan birgalikda, xufiyona iqtisodiyot ulushini sohalar kesimida qisqartirishning indikatorlari ishlab chiqilmagan (maqsadli ko'rsatkichlari).

Shuningdek, milliy iqtisodiyotning institutsional asosi hisoblangan davlat tashkilotlari va tarmoq korxonalari o'rtasida xufiyona iqtisodiyotni nazorat qilish xususiyatiga ega bo'lgan yagona integratsiya tizimi mavjud emas.

Ma'lumot o'rnida: rivojlanayotgan mamlakatlarda (shu jumladan, Qozog'iston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasida) xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha 3 yildan – 5 yilgacha bo'lgan muddatda Strategiyalar qabul qilingan hamda mas'ul-muvofiqlashtiruvchi organlar qat'iy belgilangan. Bundan tashqari, Xalqaro valyuta jamg'armasi¹⁰ hamda Jahon banki¹¹ tomonidan xufiyona iqtisodiyotni hisoblash metodikasi va indikatorlari ishlab chiqilgan. Shu bilan birgalikda, aksariyat mamlakatlarda (Singapur, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va boshqalar) xufiyona iqtisodiyotni real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyatiga ega institutsional asos (markazlashgan hamda barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega tashkilotlar bilan integratsiyalashgan) tizimli yo'lga qo'yilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ilg'or mamlakatlar tajribasi va xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'yicha ko'p yillik islohotlarning tahlili, bugungi kunda xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashishda an'anaviy vositalardan (soliq yukini kamaytirish, tadbirkorlik faoliyatidagi byurokratik to'siqlarni bartaraf, korrupsiya darajasini pasaytirish va aholi huquqiy-madaniyatini oshirish) voz kechgan holda noan'anaviy usullarni qo'llashni talab etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda bu orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash maqsadida, kompleks islohotlarni o'z ichiga olgan quyidagi choralarni ko'rish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- I. Xufiyona iqtisodiyotga taalluqli bo'lgan barcha normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o'tkazish;
- II. O'zbekiston Respublikasining 2024–2026-yillarga mo'ljallangan xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha strategiyasini qabul qilish. Mazkur strategiya doirasida:
 1. Xufiyona iqtisodiyot uchun mas'ul hamda muvofiqlashtiruvchi organ sifatida Iqtisodiyot va moliya vazirligini belgilash. Shuningdek, mazkur yo'nalish doirasida vazirlik, idora va tashkilotlarning Iqtisodiyot va moliya vazirligi oldidagi hisobdorligini qayd etish;
 2. Xalqaro valyuta jamg'armasi tavsiyasiga hamda Qozog'iston Respublikasi tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan asosiy indikatorlarini ishlab chiqish;

9 International Monetary Fund. Annual Report: Build Forward Better. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/ar/2021/eng/downloads/imf-annual-report-2021-ru.pdf>.

10 International monetary found "Shadow economy: assessment methods and indicators" 2018.

11 The World Bank "Assessment of the size of the shadow economy of Uzbekistan, regional perspective" 2023.



3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlar bazasida 2024-yil 1-martga qadar "Big Data" texnologiyasiga asoslangan, katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida inson omilisiz qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan tizimni yo'lga qo'yish hamda mazkur tizimga O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, manfaatdor vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish;
 4. Har bir vazirlik, idora va tashkilotlarning 2024-2026 yillarga mo'ljallangan (sohalar kesimida) xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.
- III. Xufiyona iqtisodiyot tushunchasi, uning mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotiga bo'lgan salbiy ta'sirlari bo'yicha aholining huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha "Astroturfing" texnologiyasini qo'llash (shu jumladan, psixologik ta'sirga ega videolavhalar tayyorlash).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Friedrich Schneider, Dominik Enste "Hiding in the shadows the growth of the underground economy". International Monetary Fund March 2002.
2. И.Никитина "Теневая экономика: понятие и структура" Вестник Омского университета. Серия «Право» 2007. №1 (10). С. 120–126.
3. О.Степичева "О сущности и содержании категории "теневая" экономика" "Гуманитарные науки". 2007. № 8. С. 58–65.
4. Гудий Ю.С. "Понятие, виды и влияние теневой экономики" экономический интернет-журнал. Москва-2020.
5. П.Юнусова "Сущность теневой экономики в современных условиях" Институт социально-экономических исследований. Россия – 2016.
6. Г.Агарков "Минимизация негативного воздействия теневой экономики на социально-экономическое развитие региона". Екатеринбург, 2008.
7. Дергачев Н.В "Administrative Consulting. Volume 4. Issue 2(8)" "Основные причины возникновения теневой экономики в России" РАНХиГС. Москва, 2019.
8. И.Воскобойников "Structural change, expanding informality and labour productivity growth in Russia" Series: economics wp brp 168/ec/2017.
9. С.Гетманова, И.Логвинова. "Теневая экономика и ее влияние на экономическую безопасность", Актуальные исслед.. 2020. №2 (5). С. 40-44.
10. Mark D. Wenner and Dillon Clarke "Shadow Economies and Data Quality: Consequences for Economic Planning and Management" Canada, 2016.
11. Friedrich Schneider and Dominik H. Enste "Shadow Economies: Size, Causes, and Consequences". Journal of Economic Literature (Vol. 38, No. 1 (Mar., 2000), pp. 77-114 (38 pages)).
12. И.Демененко, С.Огородникова "Влияние теневой экономики на развитие общества" Белград - 2018.
13. А.Власов "Экономическое обеспечение национальной безопасности" (стр. 417-426).
14. В.Сенгачев "Экономическая безопасность России" Москва Издательство «ДЕЛО» 2005. (стр. 293-296).

Footnotes

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi ma'lumotlari.
2. Xalqaro valyuta jamg'armasining 2010, 2018 hamda 2023-yillardagi hisoboti <https://www.worldbank.org/en/programs/govtech/gtmi>.
3. Xalqaro korrupsiyani hisobga olish indeksi "Transparency International" ma'lumotlari.
4. Xalqaro valyuta jamg'armasining 2010, 2018 hamda 2023-yillardagi hisoboti <https://archive.doingbusiness.org/en/doingbusiness>.
5. Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlariga asoslangan holda Stenford xalqaro universiteti eksperti A.Maganing hisoboti. Internet resurs: <https://1economic.ru/lib/110099>.
6. Iqtisodiyot vaziri birinchi o'rinbosari M.Mirzayevning 2018 yil 11 yanvardagi Xalqaro-press klubda bergan rasmiy bayonoti ma'lumotlari.
7. Strategik islohotlar agentligi direktori Matbuot-kotibi M.Xasanovning AOKAda 2023-yil 1-fevraldagi hisoboti rasmiy bayonoti ma'lumotlari.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

